

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 6 | **2025**
ISSUE 3

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 3



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессори, филология фанлари доктори,
(Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ИБРОҲИМ УСМАНОВ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Бериуний номидаги
Шарқшунослик институти – Тарих фанлари номзоди, доцент
(Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети в.б. профессори, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛРАЗЕК САДЕК АБДЕЛРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор в.б. Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Дизайн–саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

ИБРОХИМ УСМАНОВ

кандидат исторических наук, доцент, Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан (Узбекистан)

АХМЕД МУССА АБДАЛЛА СЕЙФЕЛДИН

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

и.о.профессор Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

PhD, Международная исламская академия Узбекистана (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

доктор философских наук (DSc), исполняющая обязанности профессора, Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан).

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

IBROHIM USMANOV

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor, Abu Rayhon
Beruniy Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of
Uzbekistan (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Andijan State University, Doctor of Philosophical
Sciences, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Docent of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan
(Arab Republic of Egypt)

DILBAR FAYZIKHODJAYEVA IRGASHEVNA

Doctor of Philosophy (DSc), Acting Professor, National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Madayeva Shahnoza Omonullayevna JADIDCHILIK TA'LIMOTINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY USTUVOR YONDASHUVLARI.....	7
2. Yuldasheva Farida Xujamkulovna GLOBALLASHUV VA SIVILIZATSIYA: TARAQQIY ETISHI VA MUNOSABATLARI....	13
3. Yusupova Dildora Dilshatovna THE NATIONAL MODEL OF UPBRINGING IN THE JADIDIC TEACHINGS.....	25
4. G'aniyev Ithom Muzaffarovich JAHON ADABIYOTI VA JADIDLAR BADIY MEROSIDA INTERTEKSTUALLIK.....	31
5. Amirov Azamat Odil og'li A HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL PERSPECTIVE ON JADIDISM AND ITS INFLUENCE ON THE MODERNIZATION OF MUSLIM COMMUNITIES.....	39
6. Джураева Нигора Авазовна СЕТЕВЫЕ ВЛИЯНИЯ И АВТОПОЭТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ КОГНИТИВНОЙ РЕКОНФИГУРАЦИИ СОЗНАНИЯ ВОСТОЧНОГО ЧЕЛОВЕКА В КОНТЕКСТЕ ЦИВИЛИЗАЦИОННОГО ПЕРЕХОДА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....	45
7. Madayeva Mo'tabarxon Amanullayevna MAQOLLAR – XALQ MADANYATINING KO'ZGUSI.....	57
8. Alikulov Xusniddin Akbarovich ZAMONAVIY EKOLOGIK PARADIGMALAR: ANTROPOSENTRIK VA EKOSENTRIK YONDASHUVLARNING FALSAFIY TAHLILI.....	62
9. Maxkamov Ulug'bek Abdugapporovich DIALOG FENOMENINING TALQINI.....	72
10. Narziev Farxod Qurbon o'g'li MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR NEGIZIDA NUKLEAR OILADAGI AVLODLAR MUNOSABATI.....	80
11. Курбанбаева Улбосын Жумагалиевна УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ КАК ФИЛОСОФСКО-ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ.....	87
12. Suyunova Noila G'ayrat qizi MORTIMER ADLER TA'LIM FALSAFASIGA OID QARASHLARINING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	94

ISSN: 2181-1040


www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Suyunova Noila G'ayrat qizi**

Perfect universiteti "Gumanitar fanlar"

kafedراسи o'qituvchisi,

E-mail: suyunova.n@perfectuniversity.uz

**MORTIMER ADLER TA'LIM FALSAFASIGA OID QARASHLARINING
NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18088629>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada XX asr Amerika falsafiy tafakkurining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Mortimer Adlarning ta'lim falsafasiga oid qarashlari nazariy va konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda XX asr falsafasiga xos bo'lgan pragmatizm, analitik falsafa va postmodernizm kabi asosiy yo'nalishlar fonida Adler qarashlarining shakllanish omillari yoritib beriladi. Shuningdek, Adlarning ta'lim va demokratiya, falsafa va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqidagi qarashlari tahlil qilinib, uning falsafiy merosining zamonaviy ta'lim tizimidagi nazariy va amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Mortimer Adler, ta'lim falsafasi, perrenializm, pragmatizm, analitik falsafa, buyuk kitoblar, gumanitar ta'lim.

Suyunova Noila Gayrat qizi

Lecturer, Department of Humanities

Perfect University

E-mail: suyunova.n@perfectuniversity.uz

**THE THEORETICAL AND CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF MORTIMER
ADLER'S PHILOSOPHY OF EDUCATION****ABSTRACT**

This article provides a theoretical and conceptual analysis of the educational philosophy of Mortimer Adler, one of the prominent representatives of twentieth-century American philosophical thought. The study examines the factors shaping Adler's views within the context of major philosophical trends of the twentieth century, such as pragmatism, analytic philosophy, and postmodernism. In addition, Adler's ideas on the intrinsic relationship between education and democracy, philosophy and society are analyzed, and the theoretical and practical significance of his philosophical legacy for contemporary educational systems is substantiated.

Keywords: Mortimer Adler, philosophy of education, perennialism, pragmatism, analytic philosophy, Great Books, liberal education.

Суюнова Ноила Гайрат кизи

Преподаватель кафедры «Гуманитарные науки»

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФИЛОСОФИИ
ОБРАЗОВАНИЯ МОРТИМЕРА АДЛЕРА****АННОТАЦИЯ**

В данной статье проводится теоретико-концептуальный анализ философии образования Мортимера Адлера — одного из выдающихся представителей американской философской мысли XX века. В исследовании раскрываются факторы формирования взглядов Адлера в контексте основных философских направлений XX века, таких как прагматизм, аналитическая философия и постмодернизм. Кроме того, анализируются его взгляды на органическую взаимосвязь образования и демократии, философии и общества, а также обосновывается теоретическая и практическая значимость философского наследия Адлера для современной системы образования.

Ключевые слова: Мортимер Адлер, философия образования, перенниализм, прагматизм, аналитическая философия, великие книги, гуманитарное образование.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. XX asr insoniyat falsafiy tafakkur taraqqiyotida o‘ziga xos fenomenlari bilan boshqa davrlardan mutlaqo ajralib turadi. Bu davrda insoniyat falsafiy tafakkurda ma’lum davrlarda shakllangan paradigmalarni qayta ko‘rib chiqib, yangi paradigmalar mezonlarni taklif qilish orqali falsafa fanida fundamental o‘zgarishlar ro‘y berdi. Falsafiy tafakkurda postmodernizm, ekzistensializm va analitik falsafa kabi falsafiy tafakkur oqimlari yetakchi tendensiyalar sifatida shakllandi.

XX asr falsafasi turli yo‘nalishlarning uyg‘unligi va qarama-qarshiligi bilan xususiyat kasb etdi. Bu fenomen quyidagicha ko‘rinishda edi. Bir tomondan ekzistensializm inson erkinligi va javobgarligini ilgari surgan bo‘lsa. Analitik falsafa aniq mantiq va ilmiy paradigmalar orqali falsafiy muammolarni tahlil qilishga harakat qildi. Postmodernizm bo‘lsa haqiqat va bilim tushunchalarini qayta ko‘rib chiqish orqali ma’rifa davri yaratgan paradigmalarni inkor etgan yangi paradigmalarni ilgari suradi. Ushbu davr falsafiy qiyofasini yaxlit obrazini yaratish nafaqat bu davr falsafiy tafakkuri balki har bir faylasufning qarashlarini qirralarini tushunishga imkon beradi.

Ushbu davr tahlil qilinar ekan Amerika Qo‘shma Shtatlardagi shakllangan falsafiy a’nanalar va maktablarning jahon falsafiy tafakkuriga ko‘rsatgan ta’sirini e’tirof etish zarur hisoblanadi. AQShdagi maktablarning, falsafiy yondashuvlarning asosiy jihati bu davr uchun plyuralizm edi. Bu davrda Amerikada pragmatizm, analitik falsafa, siyosiy falsafa va ta’lim nazariyasiga oid keng ko‘lamdagi falsafiy tadqiqotlar olib borildi. Shuningdek Yevropa falsafiy maktablarida shakllangan yangi zamonaviy falsafiy konsepsiyalar, nazariyalar, ekzistensializm va postmodernizm kabi g‘oyalari AQSh falsafiy muhitiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib jiddiy muhokama qilindi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Ushbu mavzuni tadqiq qilishda tarix falsafasi, komparativistika, mantiqiylik kabi metodlardan foydalanilgan.

Muhokama. Bu davr Amerika falsafiy tafakkurining eng muhim tendensiyasi pragmatizm asosida shakllangan edi. “Pragmatizm bilim va haqiqat tushunchalarini amaliy natijalar bilan bog‘lashga asoslangan bo‘lib, haqiqatning foydalilik tamoyiliga mos ravishda baholashni ilgari suradi” [1]. Bu yo‘nalish XIX asr oxirida paydo bo‘lib, XX asrda yangi nazariy asoslar bilan rivojlandi.

Amerika pragmatizmining yetakchi vakillari ta’lim, haqiqat va tafakkur masalalarini inson tajribasi bilan bog‘liq holda tushuntirishga harakat qilishdi. Bu davrning yetakchi faylasufi bo‘lgan “John Devey ta’limni jamiyatni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida ko‘rib, demokratiya va eksperimental pedagogikaga asoslangan yondashuvni ilgari suradi” [2]. “Villiyam James esa haqiqat inson tajribasining mahsuli ekanligini ta’kidlab, tafakkurning moslashuvchanligi va e’tiqodlarning amaliy natijalarga bog‘liqligini ilgari suradi” [2]. Ushbu faylasuflar pragmatizمنى rivojlantirib, inson tajribasi, tafakkuri va ta’lim jarayonlarning yangi talqinini ishlab chiqishdi.

XX asrning oʻrtalariga kelib, analitik falsafa AQShdagi falsafiy muhitda yetakchi falsafiy yondashuvga aylandi. Ushbu yondashuv asosan tahlil, til va mantiqiy strukturaga eʼtibor qaratdi. Analitik falsafa dastlabki davrda Yevropada keng rivojlangan boʻlsa ham, keyinchalik AQSh universitetlarining asosiy falsafiy yoʻnalishlaridan biriga aylandi.

XX asr Amerika falsafasi pragmatizm, analitik falsafa, siyosiy falsafa va postmodernizm oqimi taʼsiri asosida shakllandi. “John Davey taʼlim va demokratiyaga oid qarashlarni rivojlantirgan boʻlsa, John Ravls adolat nazariyasi bilan siyosat nazariyasiga jiddiy taʼsir koʻrsatdi” [3]. XX asrda shakllangan turli falsafiy oqimlar Amerika ilmiy jamiyatida yangi tendensiyalar asosida rivojlanib jiddiy falsafiy qarashlarning, paradigmalarning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Mana shunday falsafiy muhitda shakllangan XX asrning yirik faylasuflaridan bir Mortimer Adler edi. U amerikalik faylasuf, pedagog, yozuvchi, muharrir, va gumanitar taʼlimni nazariyotchisi va targʻibotchisi sifatida tanildi. Uning falsafiy qarashlari nafaqat XX asr falsafiy tafakkuriga mazmun berdi balki keyingi tadqiqotlar uchun ham ilmiy nazariy asos boʻldi.

Mortimer Adler 1902-yilda Nyu-York shahrida yashovchi yahudiy oilasida tavallud topdi. U tavallud topgan oila yuqori darajadagi ilmiy darajaga ega boʻlmasa ham, ular Adlerdagi ilmga, kitobga, yuqori boʻlgan qiziqish sababidan uning sifatli taʼlim olishi uchun unga jiddiy eʼtibor va shart sharoitni yaratib berishni istashgan.

“Adlarning juda yosh paytidan, 15 yoshida “The New York Times”da ish boshlashi uning ilmiy va badiiy adabiyotga qiziqishini yanada ragʻbatlantirgan edi. Bu gazetada ishlash jarayonida keng ilmiy manbalar bilan tanishish imkoniga ega boʻlgan edi” [4]. U bu davrida ilmiy va badiiy adabiyotga qiziqib keng oʻqirdi. Aynan shu yoshida u Platonning dialoglarini oʻqib chiqib u oʻzida falsafa nisbatan juda kuchli xohish va qiziqishni shakllantirdi. Uning bu tinimsiz bu kabi manbalar bilan tanishishi uni falsafaga boʻlgan qiziqishini rivojlantirib, uni falsafa bilan jiddiy shugʻullanish qaroriga turtki boʻldi. Shu sababli u oʻzini akademik faoliyatga bagʻishlashga qaror qilib Kolumbiya universitetiga oʻqishga kirdi.

Mortimer Adlarning asosiy faylasuf sifatidagi qarashlari Kolumbiya universitetidagi oʻqish faoliyati bilan shakllangan edi. U bu taʼlim muassasasida chuqur fundamental falsafiy bilimlarni egallash imkoniga ega boʻldi. Kolumbiya universitetida oʻqish jarayonida u Aristotel va boshqa antik davr faylasuflari ijodi bilan yaqindan tanishish unda klassik falsafaga boʻlgan qiziqishni shakllantirdi. 1928-yilda oʻzining doktorlik dissertatsiyasini “Musiqiy idrok” mavzusida himoya qilib fan doktori darajasini oldi. Uning ilmiy faoliyatining asosiy mavzusi shaxsni shakllantirish jarayonida taʼlimning oʻrni va gumanitar fanlarning inson tafakkuriga va madaniyatiga taʼsirini oʻrganishga qaratilgan edi.

Adlarning asosiy qarashlarini tashkil etuvchi taʼlim muammosi uning pedagog faoliyati natijasida ham shakllangan edi. Adler dastlabki pedagogik faoliyatini Nyu-yorkdagi City Kollege va Kolumbiya universitetida olib bordi. Uning asosiy pedagogik faoliyati 1930-yildan Chikago universitetidan boshlandi. 1942-yilda u bu universitetda professor unvoniga ega boʻldi. Uning bu yerdagi 1930-1952 yillarda olib borgan faoliyati nafaqat pedagogik sohada balki keng koʻlamda taʼlim islohotlari bilan kechdi. U Chikago universitetidagi taʼlim tizimini oʻz taʼlim falsafasiga oid qarashlar asosida isloh qilishga harakat qildi.

Bu davrda Adler oʻz hamkasbi Roberd Hatkins bilan hamkorlikda taʼlim toʻgʻrisida yirik tadqiqotlar olib bordi. Universitet taʼlim tizimini isloh qilishga qaratilgan faoliyatlarida asosiy tadqiqot obyekti ijtimoiy fanlarni oʻqitish muammosi edi. Ularning bu taʼlim islohotlaridan koʻzlangan asosiy maqsad talabalarda ijtimoiy gumanitar fanlarni keng oʻqitish va klassik asarlarni oʻqitish orqali dunyoqarashni kengaytirish edi.

Adlarning falsafiy qarashlarining asosiy mavzusi taʼlimga yoʻnaltirilgan edi. Xususan, u taʼlim nazariyasiga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlarni eʼlon qildi. U 1940 yilda oʻzbek kitobxonlari uchun yaqinda oʻzbek tiliga tarjimon Javlon Qodirov tomonidan tarjima qilingan “Kitoblar qanday oʻqiladi” (How to Read a Book) nomli asarni yozdi [5]. Ushbu kitob keng kitobxonlar, munaqqidlar tomonidan eʼtirof etilgani holda, mazkur kitob klassik adabiyot va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish boʻyicha yoʻriqnoma sifatida qabul qilindi. Asar XX asrning birinchi yarmi oxirida yozilgan boʻlsa ham hozirgacha oʻz qiymatini yoʻqotmasdan jahon kitobxonlari ommasini tomonidan oʻqib kelinmoqda. Bu asar nafaqat tadqiqotchilar va oddiy oʻquvchilar oʻrtasida kitobxonlik madaniyatini

shakllantirishga balki klassik asarlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishni maqsad qilgan edi. Shuning uchun ham bu asar takroriy nashr etilmoqda.

Shuningdek, u ilmiy faoliyatini rivojlantirib yangi ilmiy loyihalar ustida ish olib bordi. U Robert Maynarda Hutkins bilan ilmiy hamkorlikda "G'arb sivilizatsiyasining buyuk kitoblari" [6]. (Great Books of the Western World) nomli 54 qismdan tashkil topgan to'plamni nashr etdi. Ushbu kitobda 443 asar tanlab olingan bo'lib asosan G'arb madaniyatini qurgan va falsafiy tafakkurga jiddiy ta'sir ko'rsatgan asarlar edi. Keyinroq Adler ushbu loyihani, rivojlantirib eng asosiy g'oyalarni o'zida jamlagan "Syntopicon" nomli ikki jildan iborat to'plamni chop etadi.

Adlarning asosiy amaliy faoliyati uning ilmiy loyihalar bilan ham belgilanadi. U yuqoridagi loyihalardan tashqari shuningdek, 20 jildlik "Amerika solnomasi"ning (The Annals of America) (1969) nashr etilishiga bosh muharrirlik qildi. Adler boshchilik qilgan mazkur loyiha o'zida Amerika tarixi va g'oyalari haqida chuqur ilmiy tadqiqotlarni jamlagan edi.

U 1952-yilda Chikago universitetini tark etib, o'zining ilmiy tadqiqotlarga ixtisoslashtirilgan "Falsafiy tadqiqotlar institutini" tashkil etdi. Bu institut markaz sifatida asosiy faoliyatini ta'lim va falsafiy masalalarga bag'ishlagan edi.

Adler rahbarlik qilgan eng yirik loyihalardan biri bu shubhasiz uning 1974-1995 yilda "Britanica Ensiklopediyasiga" tahririyat hay'atiga rahbarlik qilishi edi. U o'zigacha shakllantirilgan mazkur ensiklopediyaning to'liq mazmunini ko'rib chiqib, falsafiy, gumanitar fanlarga asoslangan holda yangi bilimlar tizimini shakllantirishga harakat qildi.

"1990-yilda Mortimer Adler, Maks Vaysmen bilan hamkorlikda yangi bir "Buyuk g'oyalar tadqiqot markazini" (Center for the Study of Great Ideas) nomli tadqiqot markazini tashkil etdi" [7]. Ushbu markazning asosiy maqsadi falsafa bilan ta'lim uyg'unligiga asoslangan chuqur tadqiqotlarni rivojlantirish orqali G'arb an'anaviy falsafiy tafakkurini keng yoyilishiga qaratilgan edi. U o'zining bu tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Buyuk kitoblar" dasturi orqali klassik asarlarni keng jamoatchilikka yangidan tanishtirish va yetkazishni tanqidiy tafakkurni rivojlantirishni bosh maqsad qilib olgan edi.

1988-1991-yillarda Adler o'zining asosiy sohasi bo'lgan pedagogik faoliyatiga qaytib, Shimoliy Karolina universitetida ilmiy faoliyat yurita boshladi. Bu yerdagi faoliyatida u o'z g'oyalarini yosh talabalar bilan muhokama qilgan holda, o'z g'oyalarini keng yoyishga harakat qildi. U bu muhokamalarida asosiy ta'limning universal tamoyillarining ahamiyatining ochib berishga harakat qilardi.

Mortimer Adler umrining asosiy qismini falsafa va ta'lim sohasidagi izlanishlarga bag'ishladi. U o'zining ta'lim tamoyillarini isloh qilishga qaratilgan g'oyalari, ilmiy tadqiqotlari bilan XX asrning eng taniqli pedagogika nazariyotchilaridan biri sifatida tanildi, e'tirof etildi. U 2001-yil 29-iyunda Kaliforniyaning San-Mateo shahrida vafot etdi.

"Mortimer Adler falsafaga boshqa faylasuflari kabi zamonasining qaysidir faylasufi ta'sir bilan emas balki "NEW YORKS TIMES" jurnalida ishlayotganida antik faylasuflari bilan tanishish bilan tug'ilgan edi. Uning bu dastlabki qiziqishi butun bir falsafiy qarashlari tizimini shakllanishida jiddiy ta'sir ko'rsatdi" [8].

Mortimer Adlarning falsafiy qarashlarini o'rgangan olimlar jamosi uning qarashlari asosan Aristotelizm, Tomizm va Perrenializm kabi falsafiy an'analar ta'sirida shakllangan edi. Shuningdek, uning falsafiy qarashlari shakllanishida bevosita XX asr Amerika falsafiy muhitini asosini tashkil etuvchi pragmatizm, analitik falsafa va siyosiy falsafa oqimlariga tanqidiy yondashgan holda, klassik g'oyalarni zamonaviy ta'lim tizimiga modernizatsiyon, yoki transformatsion ko'rinishda joriy qilishga harakat qiladi.

"Adler falsafiy qarashlarida Aristotel va Tomas Akvinskiy (Tomizm) ta'limotlarining kuchli ta'sirni kuzatish mumkin. U antik davrning xarakter xususiyatini ta'lim tizimini bilan birga tushunishga harakat qiladi. U inson tafakkur jarayonini tadqiq etar ekan inson tafakkuri, bilim olish jarayoni Aristotel ilgari surgan mantiq va falsafiy tahlil tamoyillariga asoslanishi kerak deb hisoblaydi. Shuningdek, u ta'lim falsafasi to'g'risidagi qarashlarini u antik yunon me'rosining tadqiqi natijalaridan olingan xulosalar asosida rivojlantirishga harakat qiladi" [9].

Adler o'zining falsafiy tafakkurga qiziqqan ilk kunlaridanoq Aristotelning metafizika, axloq va ta'lim nazariyasiga oid masalalar bilan shug'ullana boshlagan. Aristotel qarashlarining katta qismini qabul qilgan Mortimer Adler ratsional fikrlash va universal tamoyillar muhimligini ta'kidlaydi.

Adler qarashlariga xristian falsafiy ta'limotining ta'sirini ham kuzatish mumkin. Xususan, Adler Tomas Akvinskiyning falsafiy va diniy qarashlarini tanqidiy asosda tahlil qilib o'rgandi. Tomas Akvinskiy Aristotel g'oyalarini katolik diniga transformatsiya qilib uyg'unlashtirgan bo'lsa, Adler mazkur yondashuvni ta'lim falsafasiga qo'llaydi. U tomizimdan unib chiqqan inson tafakkuri ilohiy haqiqatga yo'naltirilishi kerak degan g'oyani qo'llab quvvatlaydi.

Aristotelizm va tomizim nafaqat Adlarning falsafiy tafakkuriga balki uning loyihalarining mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Adlarning G'arb sivilizatsiyasining buyuk kitoblari loyihasi ham aynan Aristotel va Akvinskiy falsafasining ta'sirida shakllangan. Chunki Adler insoniyat tafakkurining eng yuqori davrining asosiy mazmuni klassik asarlarda aks etadi deb hisoblaydi.

Adler XX asr ta'lim falsafasining asosiy oqimlaridan biri bo'lgan perrenializmning yetakchi vakillaridan biri edi. Perrenializm ta'lim o'zgarmas va universal tamoyillarga asoslanishi kerak degan g'oyaga tayanadigan yo'nalish bo'lib, u pragmatizm va progressiv ta'lim yondashuvlariga tanqidiy yondashadi.

Perrenializmning asosiy tamoyillari quydagicha:

1	O'zgarmas haqiqatlar	Inson tafakkuri va madaniyatining universal tamoyillari doimiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.
2	Klassik asarlarni asos qilib olish	Buyuk mutafakkirlar va adabiyot asarlarini o'rganish muhim.
3	Aqliy rivojlanish	Ta'lim mantiqiy fikrlash va falsafiy mulohazalarni shakllantirishi lozim.
4	O'qituvchining yetakchilik roli	Pedagogning bilim beruvchi va yo'naltiruvchi funksiyasi e'tirof etiladi.
5	Barqaror o'quv dasturi	Ta'lim mazmuni o'zgarmas bo'lib, zamonaviy tendensiyalarga moslashmasligi kerak.

Muxtasar aytganda “bu yondashuv fundamental xususiyatlariga ko'ra pragmatizm va progressiv ta'lim nazariyasiga qarshi turib, ta'limni universal qadriyatlar asosida olib borilishi kerak deb hisoblaydi” [10].

Adlarning ta'lim falsafasi to'grisidagi qarashlarning asosiy mazmuni ta'lim insonni mantiqiy fikrlashga, universal haqiqatlarni anglashga va donishmandlikka erishishga yo'naltirishda aks etadi. U o'zining ta'limga oid qarashlarini o'z davrida mavjud yetakchi nazariyalari tanqidi asosida quradi. Xususan u James Davey tomonidan ilgari surilgan progressiv ta'lim nazariyasini tanqid qilib chiqadi. John Davey ta'lim nazariyasi pragmatizm va progressiv ta'lim tamoyillariga asoslanib, u o'z ta'limni tajriba, jamiyat bilan bog'liq jarayon sifatida tushuntiradi. Adler o'qitish jarayonida seminarlar, ijodiy fikrlash va didaktik metodlarni uyg'unlashtirish kerak ekanligini ta'kidlaydi.

Adler XX asrda Amerika falsafasida yetakchi o'rin egallagan pragmatizm va analitik falsafaga tanqidiy munosabatda bo'ldi. Xususan u John Davey va Viliam Jamesning empirizmga asoalangan ta'lim nazariyasini inkor qilib, haqiqatning relyativistik ekanligini qabul qilmaydi.

Adler o'z davrining yana bir muhim falsafiy tendensiyasi bo'lgan analitik falsafaga ham tanqidiy yondashib, analitik falsafani faqat mantiq va tilshunoslik doirasida cheklangan tor doira sifatida qabul qiladi. Adler analitik falsafani tanqid qilib, falsafaning axloq, ma'naviyat va qadriyatlar bilan shug'ullunishini muhimroq deb hisoblaydi.

Adlarning falsafiy qarashlar tizimida siyosiy falsafa ham o'ziga xos namoyon bo'ladi. “Adlarning siyosiy falsafasi klassik demokratiya tushunchalariga asoslangan bo'lib, uning siyosiy qarashlari o'z davrining yetakchi siyosat falsafasi vakillari John Ravls va Robert Nozikk kabi zamonaviy siyosat nazariyotchilari bilan ma'no jihatidan kesishadi” [11]. U demokratiyani

shakllantirish masalasida universal haqiqatlarga alohida urg'u berib demokratiya aynan universal tamoyillar asosida shakllantirilishi kerak deb hisoblaydi. U demokratiyaning barqarorligini sifatli ta'lim olgan oqilona fikrlaydigan fuqarolar tashkil etishini ta'kidlaydi. Adler uchun demokratiyaning fundamental asosi bu bilim va mantiqiy fikrlash hisoblanadi.

U zamonaviy faylasuf pedagog o'laroq o'z qarashlarini nafaqat ta'limni isloh qilishga qaratilgan nazariyalar, loyihalari bilan balki o'zining 50 dan ortiq kitobdan iborat asarlari bilan XX asrning mumtoz faylasuflaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Uning yozish uslubi ham o'ziga xos bo'lib tadqiqotchilar uning ba'zi kitoblari sokratik uslubda yozilganligini ta'kidlashadi. Uning kitoblaridagi bunaqangi metodologik yondashuv uni qadimgi va zamonaviy davr bilimlarini chuqur o'zlashtirganligini va uni zamonaviy falsafaga joriy qila olganini ko'rsatadi.

Mortimer Adler ta'lim jarayonida falsafaning alohida o'rnini ta'kidlab, "umuman olganda, ma'rifatli inson bo'lish tarix va falsafa tarixini tushunish hamda tarix va falsafadan xabardor bo'lishni o'z ichiga oladi" deydi [12]. U shuningdek zamonaviy ta'lim tizimiga falsafiy munozaralarni qaytarish va "buyuk g'oyalar" haqida fikr yuritishni zamonaviy tafakkurga qaytada sintezlash uchun o'z takliflarini ishlab chiqadi.

Mortimer Adler "Falsafaning xolati" (Conditions of Philosophy) asarida jamiyatda zamonaviy jamiyatda falsafaning mavqeyini tiklash uchun asosiy bo'lgan olti shartni bayon qiladi:

1. "Falsafa mustaqil fan sifatida tan olinishi kerak. Falsafa boshqa fanlardan ajralgan holda, o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan mustaqil ilmiy yo'nalish bo'lishi lozim.
2. Falsafiy bilim birlamchi bilim sifatida e'tirof etilishi kerak. Falsafa asosiy tushunchalar va bilimlarning negizini o'rganish kerak, u barcha bilim tarmoqlari uchun umumiy fundamental asos yaratishi kerak.
3. Falsafiy nazariyalar tabiiy fanlarga qo'llaniladigan obyektiv haqiqat mezonlariga yaqin bo'lishi kerak. Bu bilan Adler falsafani subyektiv fikrlarga asoslanmasdan balki, tabiiy fanlarda bo'lgani singari haqiqatni izlashda ilmiy nazariyalarga yaqin bo'lishi kerak deydi.
4. Falsafa ommaga ochiq bo'lishi kerak. Adlerga ko'ra falsafaning akademik doirada qolib ketishi keng doirada tushunilmaslikka va barobarida falsafadan uzoqlashishga olib keladi.
5. Falsafa o'ziga xos bo'lgan metodologiyaga ega bo'lishi va boshqa metodlarning metodlaridan to'liq mustaqil bo'lishi kerak.
6. Falsafa sirli ezoterik bo'lmasligi kerak. Falsafa reallik bilan kuchli bog'liqlikka ega bo'lishi va rivojlanishi kerak" [13].

Adlarning ilgari surgan bu tamoyillari falsafani zamonaviy davrda ta'limga yangidan olib kirishga qaratilgan ta'lim nazariyalarini asoslashga qaratilgan edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Adlarning qarashlari antik davr va xristian falsafasi epoxasi bilan shakllangan bo'lsa ham uning qarashlarida XX asr falsafiy tafakkur tendensiyalarining ta'sirini bevosita kuzatish mumkin. U o'z davrining falsafiy muhitida yetakchi bo'lgan pragmatizm ta'limdagi progressiv ta'lim nazariyasi va analitik falsafaning tanqidi asosida o'z falsafiy qarashlarini rivojlantirdi. U o'z qarashlarini nafaqat nazariy asoslarda balki amaliyotda o'z ilmiy tadqiqotlari asosida joriy qilgan amaliyotchi faylasuf hisoblanadi. U o'zining ta'lim falsafasi sohasida olib borgan tadqiqotlari bilan soha uchun mutlaqo yangi bo'lgan g'oyalar va nazariyalarni taklif qildi. Xususan uning falsafani ta'lim tizimida yangidan kashf qilish yo'lida olib borgan tadqiqotlari qimmatli nazariy asos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. The 4 Principles of Pragmatism in Education (2024).- Elektron manba:HelpfulProfessor.com (Murojaat qilingan sana 2024.10.8).
2. Dewey, J. (1996). *Demokrasi ve Egitim*. İzmir: Ege üniversitesi Basımevi
3. Noddings N. (2016). *Eğitim Felsefesi*. (R. Çelik, Çev.). Ankara: Nobel Yayıncılık

4. Mortimer J. Adler-'Great Books'-Elektron manba: <https://www.sfgate.com/news/article/Mortimer-J-Adler-Great-Books-philosopher-2905291.php>
5. Mortimer J. Adler, Charlz Van Doren. Kitoblar qanday o'qiladi. // Tarj: J. Qodirov. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
6. Encyclopaedia Britannica-Great Books of The Western World.-Elektron manba: <https://archive.org/details/encyclopaediabritannicagreatbooksofthewesternworld> (Murojaat qilingan sana 2023.22.10).
7. About The Great Ideas-Elektron manba: <https://thegreatideas.org/> (Murojaat qilingan sana 2023.22.10).
8. A Man of Ideas: The Legacy of Mortimer Adler-Elektron manba: <https://www.catholicworldreport.com/2013/10/22/a-man-of-ideas-the-legacy-of-mortimer-adler/> (Murojaat qilingan sana 2024.02.13)
9. Mortimer Adler champion of classical antiquity-Elektron manba: https://www.realcleareducation.com/articles/2022/03/14/mortimer_adler_champion_of_classical_antiquity_110712. (Murojaat qilingan sana 2024.02.10)
10. The Philosophy of Perennialism-Elektron manba: https://www.researchgate.net/publication/382558691_The_Philosophy_of_Perennialism (Murojaat qilingan sana 2024.02.13)
11. Bayrak, B. (2024). Daimici Mortimer Adler'de demokrasi ve e'itim. Manas Sosyal Araştırmalar Dergisi, 13(3), 824-841. doi:10.33206/mjss.1368395
12. Adler, *Four Dimensions of Philosophy*, viii-ix p. L: The University of Chicago Press, 1915 (1899).
13. Adler *Conditions of Philosophy* 1982. 45p. sal. New York, NY: Macmillan Publishing Co., Inc., 1982.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.

ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729 “СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА”.

PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000